



TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ARTPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR POTENSIALIDAN FOYDALANISH

Muallif: Madina Nurullayevna Nasritdinova¹

Affiliatsiya: Farg`ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14437565>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda artpedagogik texnologiyalarning rolini tadqiq qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: artpedagogika, ijodiy qobiliyat, kreativlik, talabalar, ta'lim texnologiyalari.

Ijtimoiy hayotda kreativlikning ahamiyati oshib borayotgan bugungi kunda ta'limgizimida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi [3. – Б.45-67]. Xususan, artpedagogika ta'limgizim jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va ularning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega[2]. Maqolaning asosiy maqsadi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini artpedagogik texnologiyalar yordamida samarali rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari artpedagogik texnologiyalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Xususan, "G'oyalar generatsiyasi" va "Uch I" metodi orqali talabalarning mustaqil fikrash, tanqidiy yondashuv va innovativ g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlari sezilarli darajada oshdi.

Vizual san'at elementlari orqali ijodiy fikrashni rivojlantirish, musiqiy ijodkorlik mashg'ulotlarida kreativlikni shakllantirish, teatr elementlari yordamida talabalarning emotsiyonal intellektini oshirish kabi artpedagogik vositalardan foydalananish mumkin[1].

Artpedagogika vositalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanib, "G'oyalar generatsiyasi" va "Uch I" metodini joriy qilish orqali ijodiy va tanqidiy fikrash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratildi.

Tadqiqot natijalari artpedagogik texnologiyalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligini isbotladi. Bunda, artpedagogika vositalari nafaqat talabalarning kreativlik darajasini oshirishga, balki ularning shaxsiy salohiyatini to'liq yuzaga chiqarishga yordam berdi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Artpedagogika vositalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yechimdir:

Tadqiqot jarayonida talabalarning faol ishtiroki, ularning mustaqil fikrashga bo'lgan intilishi va yangi g'oyalarni izlab topish qobiliyati shakllandi. Bu jarayonda vizual san'at, musiqa va teatr elementlari kabi artpedagogik texnologiyalar qo'llanildi. Mazkur usullar ijodiy jarayonning hayajonli va motivatsion muhitini yaratib, talabalarning qiziqishlarini kuchaytirdi.

Artpedagogika jarayonida talabalarning jamoaviy loyihalarda ishtirok etishi ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirdi. Ular o'zaro hamkorlik qilishni, umumiylar maqsadlarga erishish uchun moslashish va tanqidiy fikr bildirishni o'rgandilar. Bu nafaqat ijodiy qobiliyatlarga, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Artpedagogik texnologiyalar orqali talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki o'z his-tuyg'ularini boshqarish va atrofdagi insonlarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatiga ega bo'lilar. Teatr elementlari, musiqa interpretatsiyalari va ijodiy ijro jarayonida emotsiyonal intellekt mustahkamlandi.

Tavsiyalar:

Pedagoglarni qayta tayyorlash dasturlariga artpedagogika asosidagi innovatsion texnologiyalarni qo'shish zarur. Bu ularning o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Oliy ta'lif muassasalarida artpedagogik texnologiyalarni faol joriy qilish uchun maxsus o'quv rejalarini ishlab chiqish zarur. Bunda vizual san'at, musiqa, teatr, va multimedia vositalari ta'lif jarayoniga qo'shilishi kerak.

Talabalar uchun ijodiy maydonchalar, studiyalar va interaktiv loyiha jarayonlarini tashkil etish ularning kreativ fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishi mumkin.

Artpedagogika vositalarining turli ta'lif darajalaridagi samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Dewey, J. Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company. (1934).

Gardner, H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books. (2006).

Smith, J. A., & Beatty, J. Creative Pedagogy in Higher Education. Journal of Educational Innovation, 25(3), 45-67. (2018).

Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. (1978).